

## **“Radiochastotalar bo'yicha respublika kengashi qarorlarini ma'lumotlar bazasidan avtomatlashtirilgan izlash” xizmati reglamenti**

### **Xizmat tavsifi**

Radiochastotalar bo'yicha Respublika kengashi (keyinchalik - Kengash) qarorlari, shu bilan birga ishlab tayyorlanayotgan (zamonaviylashtirilayotgan), ishlab chiqilayotgan va chet eldan sotib olinayotgan radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar uchun radiochastota polosalari (nominallari)ni ajratish va O'zbekiston Respublikasi hududida radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish haqidagi qarorlarning matnlari taqdim etish.

Kengash O'zbekiston Respublikasi hududida radiochastota spektridan foydalanishni tartibga solish masalalri yuzasidan Kengash qarorlar qabul qiladi – radiochastota polosalarini rejalashtirish, taqsimlash, himoya qilish va foydalanish, radioelektron vositalar (REV)ning nurlatishlar va qabuli parametrlari meyorlari, industrial radioxalaqitlarning ruxsat etilgan qiymatlarini ta'minlash, Elektromagnit moslashuvi va REVning radiochastotalarni o'zlashtirishdagi halqaro-huquqiy himoyasi va Kengash vakolatiga tegishli boshqa masalalar yuzasidan qaror qabul qiladi. Shuningdek, Kengash ishlab tayyorlanayotgan (zamonaviylashtirilayotgan), ishlab chiqilayotgan va chet eldan sotib olinayotgan radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalar uchun radiochastota polosalari (nominallari)ni ajratish va O'zbekiston Respublikasi hududida radioelektron vositalar va yuqori chastotali qurilmalardan foydalanish haqida yuridik va jismoniy shaxslar (Radiochastota spektridan foydalanuvchilar) murojaatlarini ko'rib chiqib, qarorlar qabul qiladi.

### **Xizmat ko'rsatish faoliyati sohasi**

Radiochastotalardan foydalanish ( radio aloqa, radio nurlanish).

### **Xizmatdan foydalanuvchining toifasi**

Yuridik yoki jismoniy shaxslar.

### **Tashkilot**

Radiochastotalar bo'yicha Respublika kengashining ishchi organi - O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi

### **Bog`lanish uchun**

Manzil: Toshkent sh., 100047, Amir Temur shoh ko'chasi, 4, 3-blok  
Telefonlar: 238-43-24, 238-41-79, 238-43-11, 238-43-50

Faks 238-43-24

E-mail: [orirchs@mitc.uz](mailto:orirchs@mitc.uz)

Xizmatdan foydalanish uchun kerak bo'ladigan hujjatlar

Xizmatdan foydalanish uchun hech qanday hujjat talab qilinmaydi.

Xizmat sahifasi Kengash Qarorlarini qulay izlash va ishlash uchun vositalar to'plamidan iborat.

Foydalanuvchilar tomonidan muhim so'zlar va Qaror raqamini izlashni amalga oshirish uchun shartlar beriladi, izlash natijalari ekranda aks ettiriladi.

Xizmatni ko'rsatishning huquqiy asosi

- [O'zbekiston Respublikasining «Radiochastota spektri to'g'risida» 1998-yil 25-dekabrda 725-I-son Qonuni;](#)
- [O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013-yil 22-oktyabrda «Radiochastota spektrini boshqarishni tashkil qilish va foydalanishni takomillashtirish to'g'risida» PQ-2053-son qarori.](#)

Xizmat narxi va to'lash tartibi

Ma'lumotlar olish bepul amalga oshiriladi.

Xizmatni ko'rsatish muddatlari

Ma'lumot so'rov yuborilgan zahoti taqdim etiladi.

Natijani olish usullari

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi veb-sahifasi <http://mitc.uz> tegishli sahifalari orqali yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali <http://my.gov.uz/ru/service/278> orqali.

Xizmat ko'rsatish natijasi

Kengash tomonidan qabul qilingan Qarorlar matnlari bilan tanishib chiqish.

Rad etish sabablari

Mavjud emas.

Shikoyat arizasi berish tartibi

Buyurtmachi sifatsiz xizmat ko'rsatilgani yuzasidan Radiochastota spektridan foydalanishni tartibga solish bo'limiga yoki O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi rahbariyatiga shikoyat qilish huquqiga ega.